


**ENDOKRIN BEZLARNING ISHLASH FAOLIYATINI O'RGANISH***PhD Xudoyarova.G N.**Xatamova Sevara**(davolash fakulteti talabasi)**SAMARQAND ZARMED UNIVERSITETI*

**Anatatsiya:** Maqolada bugungi kunning eng dolzarb muommolaridan biriga aylanayotgan ichki sekretsiya bezlarini ishlash faoliyatini yaxshilash va davolash pirinsiplerini ishlab chiqish haqida qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ichki sekretsiya bezlari, endokrinolog, gormonlar, nervlar, endokrinologiya, zamonaviy texnologiyalar, endokrinopatiyalar.

**Maqsad:** endokrin bezlarini ishlash faoliyatini o'rganish va davolash pirinsiplerini ishlab chiqish.

**Tadqiqot materiallari va usullari:** Endokrin tizim tuzilmalar yig'indisidir. Ular organlar, organlarning qismlariga, qon va limfa qon tomirlarga gamonlar ishlab chiqaradigan alohida hujayralar hisoblanadi. Garmonlar birinchi navbatda tananing asosiy funksiyalariga ogohlantiruvchi yoki tushkunlikka olib keladigan omillar: metobalizm, samotik o'sish, reproduktiv funksiyalar. Endokrin tizim asab tizimi bilan birgalikda tana funksiyalarini tartibga soladi va muvofiqlashtiradi. Inson tanasida ichki sekretsiya bezlari bilan bir qatorda ulkan bezlar ham mavjud. Masalan jigar umumiy bezlar ichida eng yirigi hisoblanadi. Kimyoviy tuzilishiga ko'ra garmonlar, aminokislatalar va peptidlar hosilalariga bo'linadi. Ular alohida - alohida o'z funksiyalarini bajaradi. Endokrin tizim faqatgina asab va garmonlar bilan birga ishlabgina qolmasdan nerv faoliyati bilan ham aloqada bo'ladi. Nerv va endokrin hujayralar uchun umumiy bo'lgan gumoral tartibga soluvchi omillarni ishlab chiqarishdir. Endokrin hujayralar garmonlarni sintez qiladi va ularni qonga chiqaradi. Neytronlar esa neyrotransmitterlarni yoki kalitlarni (ularning ko'pchiligi neyroaminlar) sintez qiladi. Masalan: noepinefrin, serotanin va boshqalar. Bu garmonlar sinaptik



yo'riqlarga chiqariladi. Yangi kashfiyotlar natijasida asab va endokrin tizimlarining strukturaviy elementlarning imun tizimi bilan tashkil etilishi va faoliyatida katta o'xshashliklar ko'rsatiladi. Endokrin tizim doirasida ushbu tizimning markaziy va periferik organlari o'rtasida murrakab o'zaro ta'sirlari mavjud. Bu ta'sirlarni o'rganuvchi o'ziga xos soha mavjud bo'lib bu soha Endokrinologiya - ichki sekretsiya bezlarining tuzilishi va faoliyati, ular tomonidan ishlab chiqariladigan moddalar, garmonlar va ularning inson organizmidagi roli to'g'risidagi fan.



Endokrin kasalliklarni davolovchi shifokorlar Endokrinologlar hisoblanadi. Endokrinologlar ichki sekretsiya bezlari kasalliklarini ; gipofiz, oshqozon osti bezi, qalqonsimon bez, paritiroid va erkak, ayol bezlarini tashxislaydi. Garmonlar ishi buzilishi oqibatida boshqa kasalliklarning holatini og'irlashtiradi va sog'liqga katta zarar yetkazadi. Endokrin kasalliklari paydo bo'lmasligi uchun ratsional ovqatlanish, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilish, vazinni nazorat qilish, har yili tibbiy ko'rikdan o'tib turish kerak. Endokrinopatiyalar endokrin bezlar ishining buzilishi

natijasida kelib chiqadigan kasalliklar . Bu patologiyalar ham irsiy, ham ortirilgan bo‘lishi mumkin. Ular endokrin bezlarning barcha funksiyalariga (total) yoki (alohida funksiyalariga (parsial) ta‘sir qilish mumkin. Ko‘pincha endokrinapatiyalarni kelib chiqish sabablari: qon quyilishi, jarohatlar, yuqumli kasalliklar va intokatkatsiya kabi organik shikastlanishlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Hozirda yurtimizda ham endokrin kasalliklarini davolash va ularni zamonaviy texnologiyalar orqali oson va sifatlari jarrohlik amaliyotlarini o’tkazishmoqda. Bu soha yurtimizda ham keng yo’lga qo'yilmoqda.

**Xulosa:** Shunday qilib bez kasalliklarini yuzaga chiqmasligi va paydo bo'lmasligi uchun o'zimizga va kunlik barcha qilayotgan ishlar va ovqatlanish ratsionlariga kuchli e'tibor qaratishimiz lozim. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda tug‘ma anamolyalar skrening bo'yicha maxsus dasturlar yo'lga qo'yilgan. Neyroendokrinologiya endokrinologiya bo'limning eng asosiy sohalaridan biri bo'lib rivojlanmoqda va bu sohaga ko‘plab malakali kadrlar va shifokorlar jalb qilinmoqda. Bu kasallik yutimida ham avj olganligi tufayli bu soha kengaytirilmoqda va yosh malakali kadrlar yetishib chiqishi uchun ko‘plab shart - sharoitlar yaratilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Гисталогия Под редакцией Ю.И. Афанасьевич, Н.А. Юриной. (436-472бет).
2. To'raqulov .Y. X, Islombokov R.Q, Buqoq va uni davolash T. 1962;
3. Islombokov R.Q, Radioaktiv "му йод ифункцийа шитовидной железы", Т.1971.